

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOV KAMOL DJAMOLOVICH

HAMKORLIK STRATEGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX
O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02. – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктор наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Rahmonov Kamol Djamolovich

Hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....3

Рахмонов Камол Джамолович

Совершенствование методики подготовки будущих учителей истории к профессиональной деятельности на основе стратегий сотрудничества.....33

Rakhmonov Kamol Djamolovich

Improving the Methodology of Preparing Future History Teachers for Professional Activities Based on Cooperative Strategies.....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOV KAMOL DJAMOLOVICH

HAMKORLIK STRATEGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX
O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02. – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Ped1009 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.buxdu.uz/>) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yarmatov Raximboy Baxramovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tursunov Ravshan Normurodovich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarchi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil “31” may soat 10⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. E-mail.: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan).

17/1 Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “19” may kuni tarqatildi (2025-yil “19” 05 da) 17/1 - raqamli reestr bayonnomasi)



Ochildiyev F.B.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ochilov A.T.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyev A.R.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc)

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual salohiyatli va yuqori darajadagi pedagogik mahoratga ega mutaxassis sifatida tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish, ayniqsa ta‘lim jarayonida hamkorlik strategiyalarini qo‘llash orqali kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish, erkin va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish”¹ dolzarb vazifa sifatida belgilanib, oliy ta‘lim jarayonida hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlari hamda pedagogik mahorati innovatsion ta‘lim berishning hamkorlikda o‘qitish metodlari asosida rivojlantirilmoqda. Garchi gumanitar sohalarining taraqqiy etish bosqichlari uzoq tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo‘lsa-da, globallashtirish davriga kelib yangi avlod darsliklarini yaratish zarurati kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aynan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirishda o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini hamkorlikka asoslangan o‘qitish texnologiyalari bilan boyitish va ulardan maqsadli foydalanish o‘ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim va tarbiyani tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida zamonaviy taraqqiyot asoslarini barpo etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. “Eng katta boylik bu aql-zakovat va ilm. Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik – bu ilmsizlikdir. Ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik, ilm yo‘q joyda qashshoqlik, jaholat va to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Ilm-ma‘rifat va yuksak ma‘naviyat kerak”². Bu esa, o‘z navbatida “Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish”, “Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratish”³ orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda hamkorlik strategiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli

¹ Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all / World Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea. – P.6.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил, 30 декабрь.

³ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” farmonlarini, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi ⁴. Hamkorlik strategiyalari asosida talabalarni o‘qitishni tashkil etish hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Association for Educational Communications and Technology (AQSH), University of Columbia (AQSH), University of Sorbonne (Fransiya), University of Freiburg, Bielefeld pedagogical university (Germaniya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Buyuk Britaniya), Japan Institute of International Affairs (Yaponiya), Miyagi pedagogical university (Yaponiya), Seoul of National University (Janubiy Koreya), University of Chunang (Janubiy Koreya), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda.

Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Jumladan, xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology); pedagogika oliy ta‘lim muassasasida tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimining samarali faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari takomillashtirilgan (Bielefeld pedagogical university); o‘qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan (University of Columbia, University of Sorbonne, University of Freiburg); talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari yaratilgan (University of Chunang); o‘qituvchilarning ma‘naviyatni shakllantirishning neyrolingvistik

⁴ Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: Aprocess-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Vol. 30. №2. –P. 176-188; Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. – Москва: Академия, 2012. – 256 с.; Никитина Н.Н. Введение в педагогическую деятельность: теория и практика / Учебное пособие. – Москва: Издательский центр Академия, 2008. – 224 с.; Современные образовательные технологии / Учебное пособие. Под. ред. Н.В.Бордонской. – Москва: КНОРУС, 2013. – 432 с.

dasturlashtirish texnologiyasi takomillashtirilgan (Miyagi pedagogical university); o'qituvchilarda o'z kasbiga sadoqatlilik pozitsiyasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyalari (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya) ishlab chiqilgan.

Taraqqiy etgan davlatlarda quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ijtimoiy-gumanitar soha o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar darajasida boshqarishni ta'minlash hamda ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini tashkil etishda innovatsion yondashish va hokazo.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida tarix darslarini o'qitish metodikasi yo'nalishida o'zbekistonlik olimlardan A.Sa'diyev⁵, M.Gafforova⁶, T.Toshpo'latov va Y.G'afforov⁷lar tomonidan dastlabki darsliklar va qo'llanmalar chop etilgan. So'nggi yillarda ham bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasiga xizmat qiluvchi bir qator kitoblar nashr qilinmoqda⁸.

Respublikaning tarixchi-metodist olimlaridan biri R.Yarmatov tomonidan bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan va bir necha kitoblari chop etilgan⁹. Tadqiqotda iqtidorli talabalarni tanlash, tarbiyalash, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kabilar asosiy vazifa sifatida tanlangan.

Tadqiqotchi R.Zamilova bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishda badiiy-tarixiy matnlarni tanlash va strukturalashtirishning pedagogik mexanizmi ma'lumotlarning ishonchliligi va xolisligi, tarixiy hujjatning hajmi va to'liqligi, badiiy matnlarning turlari va ko'rinishlarini hisobga olish mezonlarining refleksiv hamda tanqidiy tafakkur bilan integrativligini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirilgan tavsiyalarini o'z dissertatsiyasida taqdim etgan¹⁰.

Tadqiqotchilardan Q.Shonazarov, O.Davlatov, A.Ismailov, N.Bozorova, S.Botirovalar tomonidan umumta'lim maktablari va akademik lisey

⁵ Саъдиев А. Ўзбекистон халқлар тарихини ўқитиш / Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1993. – 123 б.; шу муаллиф. Мактабда тарих ўқитиш методикаси / Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1998. – 98 б.

⁶ Гаффаров Я, Гаффарова М. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш усуллари / Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1996. – 120 б.

⁷Тошпўлатов Т., Гаффаров Я. Тарих ўқитиш методикаси / Ўқув қўлланма. –Тошкент: Университет, 1999. – 213 б.; шу муаллифлар. Тарих ўқитиш методикаси / Ўқув қўлланма. –Тошкент: Университет, 2002. –196 б.; шу муаллифлар. Тарих ўқитиш методикаси / Дарслик. –Тошкент: “Турон-иқбол” нашриёти, 2010. – 331 б.

⁸ Sagdiyev A. Tarix o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma. – Tashkent, 2021. –53 b.; Mansurov U. va b. Tarix o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2022. –134 b.; Toshtemirov S. va b. Tarix o'qitish metodikasi / Darslik. –Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2023. –494 b.; G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi / Darslik. – Tashkent: Olmaliq kitob biznesi, 2023. –392 b.; Yuldashev T. Tarix o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma. – Tashkent, 2023. –94 b.; Teshayev A. Tarix o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma. –Buxoro, 2024. –128 b.

⁹ Ярмагов Р.Б. Бўлажак тарих ўқитувчиларининг касбий методик тайёргарлигини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Тошкент, 2021. –279 б.; shu muallif. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. –Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. –136 b.; shu muallif. Pedagogika tarixining nazariy va amaliy asoslari / O'quv qo'llanma. –Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. –200 b.

¹⁰ Zamilova R.R. Badiiy-tarixiy adabiyotlar vositasida bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish. Diss...ped. fan. dok. –Namangan, 2022. – 250 b.

o'qituvchilarining metodik tayyorgarlik ishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan¹¹.

Tadqiqotchi N.Bozorova tomonidan umumta'lim maktablarida tarix darslarini o'qitishda ikkinchi jahon urushi tarixiga oid mahalliy manbalardan foydalanish asoslarini belgilash boyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan¹². S.Botirovaning tadqiqotida esa umumiy o'rta ta'lim maktabi 8-sinf o'quvchilarida O'zbekiston tarixi o'quv mashg'uloti orqali kommunikativ va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning uslubiy modelini ishlab chiqish va eksperimental tekshirishdan iborat maqsad belgilab olingan¹³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida B.Abdikarimov, A.Abdirov, G.Baubekova, V.Andreyev, S.Yakusheva, N.Nikitina, G.Bragina, V.Jabakov, L.Zanina, N.Menshikov, M.Korepanova, I.Rachenko, V.Simonov, N.Tarasevich, I.Krivos, S.Yelkanov, Y.Kulyutkinlar ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi rivojlanishining samarali metodlarini ishlab chiqishgan¹⁴.

Turli soha vakillari tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, tarix ta'limi o'quv mashg'ulotlarida hamkorlik strategiyalarini qo'llash usullari va uning pedagogik ahamiyatini ochib berish bilan bog'liq yetarli tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasining "Yoshlarning umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va

¹¹Шоназаров К. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида тарихий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаш. Дисс... пед. фан. бўйича фал. док. –Тошкент, 2002. –134 б.; Давлатов О. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш. Автореф. пед. фан. бўйича фал. док. –Тошкент, 2018. –57 б.; Исмаилов А. Академик лицейларда тарих фанини ўқитишнинг инновацион технологияларини такомиллаштириш. Автореф. пед. фан. бўйича фал. док. – Тошкент, 2018. –50 б.; Bozorova N. Umumta'lim maktablarida tarix darslarini o'qitishda ikkinchi jahon urushi tarixiga oid mahalliy manbalardan foydalanish. Diss... pед. фан. bo'yicha fal. dok. –Termiz, 2023. –112 б.; Botirova S. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi (8-sinf misolida). Diss... pед. фан. bo'yicha fal. dok. –Toshkent, 2024. –150 б.

¹² Bozorova N.M. Umumta'lim maktablarida tarix darslarini o'qitishda ikkinchi jahon urushi tarixiga oid mahalliy manbalardan foydalanish. Diss... pед. фан. bo'yicha fal. dok. –Termiz, 2023. – 112 б.

¹³ Botirova S. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi (8-sinf misolida). Diss... pед. фан. bo'yicha fal. dok. – Toshkent, 2024. –150 б.

¹⁴ Абдикаримов Б.А., Абдилов А.М., Баубекова Г.Д. Профессиональная педагогика / Учебное пособие. – Астана: КазАТУ, 2008. –367 с.; Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. –Казань, 1996. –568 с.; Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. – Москва: Академия, 2012. –256 с.; Основы педагогического мастерства / Учебное пособие. Под ред. Зязюна И.А. –Москва: Просвещение, 2012. –302 с.; Никитина Н.Н. Введение в педагогическую деятельность: теория и практика / Учебное пособие. –Москва, 2018. –224 с.; Брагина Г.В. Мастерство учителя на уроке. –Москва: Творческая педагогика, 1992. –40 с.; Жабиков В.Е. Педагогическое мастерство учителя физической культуры / Учебное пособие. – Челябинск: Южно-Уральского ГПУ, 2016. –195 с.; Занина Л.В., Меньшиков Н.П. Основы педагогического мастерства / Учебное пособие. –Ростов: Феникс, 2003. –288 с.; Корепанова М.В. Основы педагогического мастерства: учебник для студентов. –Москва: Академия, 2012. –240 с.; Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. –Пятигорск, 1992. –196 с.; Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. –Москва, 1995. –189 с.; Тарасевич Н.Н., Кривос И.Ф. Учителю педагогической технике. –Москва: Педагогика, 1987. –216 с.; Елканов С.Б. Основы профессионального самовоспитания будущего учителя. Москва: Просвещение, 1989. –190 с.; Кулюткин Ю.Н. Развитие творческого потенциала учителя в процессе его последилового образования // Проблемы непрерывного образования. –Псков, 1995. – №4. –С. 3-13.

metodikasini ishlab chiqish (2019-2023-yy.)” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid kognitiv, ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-faoliyatli, motivasion-qadriyatli, loyihaviy, texnologik asoslarga ega metapredmetli komponentlarda hamkorlik strategiyalarining intensivligini ta‘minlash orqali pedagogik muammolar hamda o‘quv uslubi ta‘minotning holatini tahliliy o‘rganish;

hamkorlik strategiyalariga asoslangan tarix darslarini o‘qitishda talabalardagi faollik, muloqotchanlik, axborot almashish va uni tarixiy tadqiq etish, tezkor aloqani o‘rnatish kabi kompetensiyalarning integrativ (maxsus, psixologik-metodik, didaktik) ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg‘ulotlarni pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o‘zaro qayta aloqaga kirishuvchi sinergetik ta‘sirning (ijobiy, konstruktiv, inklyuziv) amaliy ahamiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan tashkiliy-funksional modelni yaratish;

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlovchi (mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish), ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi “Ko‘p burchakdan tahlil” (“Think-Pair-Share”) usullari orqali baholashni ta‘minlovchi takomillashtirishgan metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Navoiy davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika institutining jami 509 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash yo‘llarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta‘minlashga qaratilgan metodlar majmui qo‘llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni kognitiv, ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-faoliyatli, motivasion-qadriyatli, loyihaviy, texnologik asoslarga ega metapredmetli komponentlarda hamkorlik strategiyalarining intensivligini ta‘minlash orqali aniqlashtirilgan;

tarix darslarini o'qitishda hamkorlik strategiyalari talabalarning o'quv harakatlarida faollik, muloqotchanlik, axborot almashish va uni tarixiy tadqiq etishda tezkor aloqani o'rnatish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishni ta'minlovchi integrativ (maxsus, psixologik-metodik, didaktik) ko'rsatkichlari ilmiy asoslangan;

bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi talabalarning guruhiy va jamoaviy hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg'ulotlarni pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilgan;

hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan ta'lim muhiti o'zaro qayta aloqaga kirishuvchi sinergetik ta'sirning (ijobiy, konstruktiv, inklyuziv) darajasini baholash mezonlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi talabalarda tarixiy tadqiqotlarni bajarish (mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish) ko'nikmalari rivojlantiruvchi "Ko'p burchakdan tahlil" ("Think-Pair-Share") usuli (madaniy dialogli, adaptiv, reproduktiv bosqichlarini integratsiyalash) asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Buxoro davlat universiteti 70220301 - Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi magistratura o'quv rejasida "Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" tanlov fani kiritilgan. Fan yuzasidan o'quv qo'llanma chop etilgan. Shuningdek, dissertatsiyada keltirilgan metodik ishlanmalardan "Fan va texnika tarixi" nomli darslikni yaratishda, "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari", "XX asr Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar" kabi o'quv qo'llanmalarni yozishda va chop etishda foydalanilgan;

hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga doir kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan;

hamkorlikda o'qitishga asoslangan bir necha metodlar va ulardan foydalanish usullari amaliyotga tadbiiq qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarining ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi; xulosa va tavsiyalarining amaliyotga tadbiiq qilingani; olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalasini tadqiq qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilganligi, ularni oliy ta'limda hamkorlik strategiyalari asosidagi o'quv mashg'ulotlariga joriy etishning ilmiy mezonlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, oliy ta'lim muassasalarida "Tarix", "Islom tarixi va manbashunosligi", "Arxeologiya" ta'lim

yo‘nalishlari bo‘yicha umumkasbiy, ixtisoslik va tanlov fanlarining darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlari, seminar va mustaqil ta‘lim ko‘rsatmalarini ishlab chiqishda, asosiy maqsadi talabalarni istiqbolda tarix o‘qituvchisi kasbiga tayyorlovchi “Tarix o‘qitish metodikasi” fani o‘quv mashg‘ulotlarida, 70220301-Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi magistratura o‘quv rejasidagi “Tarix fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” tanlov fanining metodik ta‘minotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni kognitiv, ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-faoliyatli, motivasion-qadriyatli, loyihaviy, texnologik asoslarga ega metapredmetli komponentlarda hamkorlik strategiyalarining intensivligini ta‘minlash orqali aniqlashtirilgan tavsiyalar Buxoro davlat universitetining 452-42-sonli guvohnomaga muvofiq nashr qilingan “Fan va texnika tarixi” nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 22-noyabrdagi 02/01-01-127-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur darslik talabalarning nazariy bilimlarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilgan;

tarix darslarini o‘qitishda hamkorlik strategiyalari talabalarning o‘quv harakatlarida faollik, muloqotchanlik, axborot almashish va uni tarixiy tadqiq etishda tezkor aloqani o‘rnatish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishni ta‘minlovchi integrativ (maxsus, psixologik-metodik, didaktik) ko‘rsatkichlari ilmiy asoslangan xulosalar “60220300 - Tarix” ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan hamda “Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari” nomli elektron darslik ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 22-noyabrdagi 02/01-01-127-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga doir pedagogik tizim takomillashtirilgan;

bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi talabalarning guruhviy va jamoaviy hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg‘ulotlarni pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy natijalardan “Buyuk ipak yo‘li” Buxoro viloyat madaniy-ma‘rifiy markazi tomonidan amalga oshirilgan “Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi” nomli ilmiy loyihani (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining 2022-yil 27-iyuldagi 77-12/15-sonli davlat granti) amalga oshirishda foydalanilgan (“Buyuk ipak yo‘li” Buxoro viloyat madaniy-ma‘rifiy markazi nodavlat notijorat tashkilotining 2024-yil 06-noyabrdagi 28/01-2024-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga doir pedagogik tizim mazmunining boyitilishiga erishilgan;

hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan ta‘lim muhiti o‘zaro qayta aloqaga kirishuvchi sinergetik ta‘sirning (ijobiy, konstruktiv, inklyuziv) darajasini baholash mezonlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan ilmiy natijalari hamda amaliy taklif-tavsiyalaridan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Buyuk Ipak yo‘li sivilizatsiyasida Buxoroning tutgan o‘rni”, “Jadidchilik: milliy

o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" kabi bir qator ko'rsatuvlarda unumli foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-noyabrdagi 02-09-188-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh avlodga Buxoro tarixini o'rgatish, shuningdek, jadidlarning ta'lim tizimini va Buxoro taraqqiyparvarlarining pedagogik qarashlarini o'rganishning muhimligi haqida fikrlar bayon etilgan;

hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi talabalarda tarixiy tadqiqotlarni bajarish (mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish) ko'nikmalarini rivojlantiruvchi "Ko'p burchakdan tahlil" ("Think-Pair-Share") usuli (madaniy dialogli, adaptiv, reproduktiv bosqichlarini integratsiyalash) asosida takomillashtirilgan tavsiyalar Buxoro davlat universitetining 2023-yil 21-oktyabrdagi 556-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 556-32-sonli guvohnomaga muvofiq "XX asrda Yevrosiyoda siyosiy jarayonlar: tarixi va zamonaviy tendensiyalar", 2024-yil 2-iyuldagi 452-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 452-40-sonli guvohnomaga muvofiq "Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmalari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 22-noyabrdagi 02/01-01-127-son ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv qo'llanmalar bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-funksional modelini yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 44 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, shundan 15 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 226 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga

tayyorlaydigan oliy ta'lim tarix o'qituvchilarining o'z fani va kasbiy faoliyatiga oid tadqiqotlarga munosabati, ta'lim-tarbiya birligiga erisha olish zarurligi bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, metapredmetli komponentlarda hamkorlik strategiyalarining intensivligini ta'minlash orqali pedagogik muammolar hamda o'quv uslubiy ta'minotning amaliyotdagi holati tahliliy o'rganilgan, uni loyihalashtirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlanmalar taqdim qilingan.

Har bir tarix fani o'qituvchisi ilmiy tadqiqot yangiliklarini o'quv jarayoniga joriy etishda va ta'limni tarbiya birligi asosida olib borishda metapredmetli (kognitiv¹⁵, ijtimoiy-madaniy¹⁶, shaxsiy-faoliyatli¹⁷, motivasion-qadriyatli¹⁸, loyihaviy¹⁹, texnologik²⁰ asoslarga ega) komponentlarni amalga oshirish orqali natijaga erishishi mumkin. Ushbu vazifani bajarish esa o'quv mashg'ulotlarini hamkorlik strategiyalari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Hamkorlik strategiyasi – umumiy maqsadga erishish uchun talabalar bilan birgalikda ishlashning samarali usuli bo'lib, bunda talabalar o'qituvchidan o'rganadilar, talabalar bir-birlariga bilimlarni ulashadilar va hokazo. Hamkorlikda o'rganish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, avvalo, o'qituvchi va talabalar bir-birlarini hammaslak, hamfikir, o'zaro hamkor sifatida qabul qilishlari kerak.

Pedagogika tarixida amaliy mashg'ulotlarni hamkorlikda o'qitish g'oyasi 1970-yillarda paydo bo'lgan. Dunyoning Buyuk Britaniya, Kanada, GFR, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ilk bora keng qo'llanilgan ushbu o'qitish usuliga ko'ra, talabalar o'quv materiallarini bahs va munozaralarga asoslanib o'rganadilar.

Natijada:

- har bir talaba mustaqil fikr yuritishda o'rganadi;
- har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi vujudga keladi;
- o'z kuchi va qobiliyatida ishonch mustahkamlanadi;
- har bir talaba sidqidildan aqliy mehnat qilishga o'rganadi;
- har bir talaba o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga intiladi;
- o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam berishga harakat qiladi.

¹⁵ Kognitiv asoslar deganda bilish, idrok etish, fikriy tahlil qilish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, xotira va diqqat kabi aqliy faoliyat turlari tushuniladi. Bu ta'limda talabalarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

¹⁶ Ijtimoiy-madaniy asoslar – talabani jamiyat va madaniyat qiymatlarini tushunishga, muloqotga kirishishga, madaniy merosga hurmat bilan yondashishga yo'naltiradi. Tarix o'qituvchisi sifatida talabani fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati shakllanadi.

¹⁷ Shaxsiy-faoliyatli asoslar – shaxsiy mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, o'z-o'zini baholash va rivojlantirishga asoslangan bo'lib, tarix o'qituvchisining kasbiy mustaqilligi va ichki motivatsiyasini ta'minlaydi.

¹⁸ Motivasion-qadriyatli asoslar – o'qituvchi faoliyatining ichki va tashqi motivatsiya manbalari, bilim olishga bo'lgan qiziqish, pedagogik faoliyatning ma'naviy qiymatlariga ishonch kabilarni qamrab oladi. Ushbu asoslar kelgusi mutaxassisni o'z ishiga sadoqat bilan yondashishga undaydi.

¹⁹ Loyihaviy asoslar – ta'lim jarayonida loyiha asosida ishlash: ya'ni talabalar mustaqil yoki jamoa bo'lib tadqiqot, dars ishlanmalari, ma'ruzalar tayyorlaydilar. Bu tarix fani o'qituvchilarida muammoli vaziyatlarni hal qilish, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

²⁰ Texnologik asoslar – pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari. Bu – raqamli savodxonlik, media vositalar, interaktiv platformalardan samarali foydalanish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Yuqoridagi natijalarga erishish uchun jahonning bir qator metodist olimlari tomonidan hamkorlik o'qitish texnologiyasi asosida talabalarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etish bo'yicha bir necha metodlarni tavsiya qiladilar.

1) Komandada o'qitish (AQSHdagi Xopkins universiteti professori R.Slavin, 1990);

2) Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986);

3) Hamkorlikda o'qitishning "arra" usuli (Kaliforniya universiteti professori J.Arimson, 1978);

4) Hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiymiz" metodi (Minnesota universiteti professori R.Jonson, 1987);

5) Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi (Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan, 1988)²¹. Shuni qayd etish joizki, mazkur metodlarga asoslangan mashg'ulotlar talabalarda o'tgan mavzuni hamda yangi materiallarni tez o'zlashtirish imkoniyatini oshiradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida o'quv mashg'ulotlarini ta'lim-tarbiya birligi asosida olib borish tarix fani o'qituvchilariga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri hisoblanadi. Tarix ta'limi bu raqam va dalillarni sanash, ma'lumotlarni yozdirish va ularni yodlatishdan iborat emas. Har bir tarix fani o'qituvchisi dars mashg'ulotining asosiy maqsadi – muhim voqelik yoki tarixiy shaxsning faoliyatiga oid dalil va ma'lumotlar misolida talabalar ongiga tarbiya elementlarini singdirish bo'lmog'i kerak. Masalan, Turkistonda jadidchilikning vujudga kelishi bilan bog'liq bilimlar berish jarayonida talabalarda o'z oldida muayyan maqsadlar qo'yib, ularga erishish yo'lida kurasha olish, shuningdek, Vatan ozodligini har narsadan ustun qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish (Usmon Xo'ja faoliyati misolida); Turkistonda sovet rejimiga qarshi kurashgan qo'rboshilar faoliyatini xolisona tahlil qilish orqali talabalaridagi jamoa bo'lib harakat qilish, maqsadlar mushtarakligiga erishish, nizoli vaziyatlarda doimo muammoni murosa yo'li bilan hal etishga harakat qilish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish (Madaminbek faoliyati misolida); BXSr hududlarida islohotlar uchun kurash voqealarini bayon etishda talabalarining barchasiga ta'lim-tarbiya olish uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilganligini tushuntirish, shuningdek, shijoat, mardlik, fenomenal rahbarlik qobiliyatga yo'naltirish (Fayzulla Xo'jayev faoliyati misolida) va hokazo.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun yana bir muhim innovatsion yondashuv – o'quv dasturi mavzularini tuzishda fanlararo integratsiyani, o'zaro uzviylik hamda uzluksizlikni amalga oshirishga tavsiya berilgan. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalari tarix yo'nalishi III bosqichi (5-o'quv semestri) o'quv rejasiga ko'ra mutaxassislikka oid 5 ta fan misolida tavsiyalar taqdim etiladi. Bular "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi", "Tarix o'qitish metodikasi" (majburiy), "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari", "O'zbek muhojirligi tarixi" (tanlov) nomi bilan o'tiladigan fanlar bo'lib, mazkur fanlarning o'quv dasturi asosida ishchi dastur (sillabus) tuzilishi jarayonida har bir mavzuni ketma-ketlik bilan loyihalashtirishda o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi muhimdir. Bunda fan o'qituvchilari o'zlariga tegishli sillabuslarni tuzishda, avvalo, mavzularning xronologik chegarasiga e'tibor

²¹ Dilova N.G'. O'quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o'rni // Zamonaviy ta'lim. 2017. –№ 1. –B. 24.

qaratishlari zarur, ikkinchidan, tarixiy vaziyat va uning yo‘nalishlarini muvofiqlashtirishlari ham muhim hisoblanadi. Quyida namuna sifatida berilgan “Fanlar va mavzular integratsiyasi bo‘yicha jadval”ga ko‘ra, “XIX asr oxiri-XX asr boshlari”ga oid xronologik xususiyatlar nazarda tutilgan bo‘lsa, mazkur davrga xos bo‘lgan “Turkiston mintaqasi va dunyo mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli”ni integratsion yondashuv asosida loyihalashtirish hamda shu asosda o‘qitishni tashkil etish ijobiy samara beradi. Tadqiqot hajmining kengayib ketishini inobatga olib, mazkur jadvalda sillabusdagi faqat birinchi mavzular loyihalandi. Keyingi barcha mavzu va rejalar ham fan o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorligi natijasida shu tartibda tuzilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

Fanlar va mavzular integratsiyasi bo‘yicha loyiha

№	Fanlarning nomi	Fan bloki	Mavzu nomi	soati
1	O‘zbekiston tarixi	majburiy	XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat. Mustamlaka sharoitida Turkiston xalqlarining iqtisodiy ahvoli	2
2	Jahon tarixi	majburiy	XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Yevropa va Amerika iqtisodiy taraqqiyot. Yirik monopoliyalarning vujudga kelishi	2
3	Tarix o‘qitish metodikasi	majburiy	Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni (“XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Yevropa va Amerika davlatlari iqtisodiyoti. Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi” deb nomlangan Jahon tarixining 10-sinflarda o‘tiladigan 1-mavzusi misolida)	2
4	Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari	tanlov	XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining iqtisodiy-ijtimoiy ahvoriga umumiy tavsif. Turkistonda matbuotning vujudga kelishi.	2
5	O‘zbek muhojirligi tarixi	tanlov	XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining norozilik harakatlari – o‘zbek muhojirligining omili sifatida	2

Natijada:

– o‘quv dasturi bo‘yicha sillabus tuzish jarayonida o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashinuvi hamda hamkorlik munosabatlari yuzaga keladi;

– hamkor o‘qituvchilar istiqbolda o‘rgatilayotgan davrning dolzarb muammolari va tarixiy nazariyalarini mukammal o‘rganishlari natijasida hammualliflik asosida bir qator ilmiy risolalar hamda metodik ishlanmalar tayyorlash imkoniyatini qo‘lga kiritadilar;

– hamkor o‘qituvchi mazkur fanlardan o‘quv mashg‘ulotlariga kirib, dars tahlilini amalga oshirar ekan, o‘zaro bir-birlariga kreativlik va ijodiylikka oid tavsiyalarni taqdim etadilar, integratsion yondashuv bu ishni yanada osonlashtiradi;

Talabalar (ya’ni, bo‘lajak tarix o‘qituvchilar)ning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadini ko‘zlab tavsiya etilayotgan o‘quv rejasini va dasturini tuzishda fanlararo integratsiyani hamda o‘zaro uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish doirasida quyidagi metodik samaradorlik qo‘lga kiritiladi:

– bo‘lajak tarix o‘qituvchilari yo‘nalishga mos zaruriy bilimlarni o‘zlashtirishlari natijasida kasbiy kompetentlik bo‘yicha ayrim ko‘nikmalarga erishadilar;

– o‘zaro uzviy bog‘langan materiallarning o‘quv jarayoniga joriylantirilishi talabalarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi;

– tarix yo‘nalishi talabalari turli mintaqalarda bir tarixiy davrda sodir bo‘layotgan jarayonlar (taraqqiyot va inqiroz omillari)ni qiyosiy tahlil qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar;

– istiqbolda talaba o‘zining pedagogik faoliyati davomida fanlar va mavzular orasidagi uzviylikni metodik qo‘llay olish malakasini egallash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik ta’limini loyihalashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan metodik ta’limni loyihalashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tarix o‘qituvchilarining o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarligi va uni takomillashtirishning metodik ta’minoti hamda hamkorlik strategiyalari va qo‘shimcha materiallar asosida ma’ruza jarayonining loyihalashtirilishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

1. “Yo‘naltirish” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichini bajarish tavsiya etiladi. Bunda mavzuning dolzarbligi va pedagogik ahamiyati muhimligini ochib berish rejalashtirishi zarur (o‘qituvchiga tavsiya: O‘zbekiston milliy davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi va 1920-1924-yillarda mavjud bo‘lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hukumati muhim tarixiy bosqich bo‘lganligi ayni haqiqatdir. O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda Buxoro amirligi hamda BXSR tarixi masalasi o‘zining dolzarbligi bilan tadqiqotchilarni jalb qilib kelmoqda va hokazo).

2. “Yangi axborotlar berish” tayyorgarlik bosqichi. Bunda o‘qituvchi tomonidan ma’ruza mashg‘uloti uchun asosiy ilmiy dalillar va tayanch tushunchalar oldindan tayyorlab qo‘yiladi (o‘qituvchiga tavsiya: Buxoro amirligi va BXSR iqtisodiy tizimidagi qishloq xo‘jaligi (paxtachilik, chorvachilik, ipakchilik, g‘allachilik, qorako‘lchilik), vaqf mulklariga munosabat, soliq siyosati, bank tizimi, transport holati, tovar-pul munosabatlari kabi masalalarga oid ma’lumotlarni o‘rganish va hokazo).

3. “Metodologik” tayyorgarlik bosqichi. Bunda ma’ruza jarayonida o‘qitish usullarining qaysi biri samara berishi tanlab qo‘yiladi (o‘qituvchiga tavsiya: “Tarixiy savol”, “Erudit” tok-shousi, “Press-konferensiya”, “Debat”, “Disput” usullari, “Konseptual jadval”, “Klaster”, “T-chizma” kabi grafik organayzerlar va hokazo).

4. “Ilmiy yondashuv” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi. Bunda o‘qituvchi mazkur mavzu doirasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilganligidan xabardor bo‘lishi va bir necha tarixiy kitoblardan darsda foydalanishni rejalashtirishi lozim (o‘qituvchiga tavsiya: Buxoro amirligining ag‘darilishi va BXSРning tashkil topishi tarixiga oid tadqiqotlar doirasi mustaqillik yillarida kengayib, ushbu muammoni tadqiq qilishda imkon qadar xolislik asosida yondashilgan. Tarixchi olimlarning asl manbalarga va matbuot materiallariga tayangan holda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga kelgan. Bu borada F.Qosimov, B.Ergashev, Sh.Hayitov, Q.Rajabov, K.Rahmonov, U.Rashidov, L.Muhammadjonova, S.Xolboyev, G.Ostonova, Z.Jo‘nayeв, H.Jo‘rayev kabi mualliflarning tadqiqot ishlari muhim va hokazo).

5. “Ta’lim-tarbiya birligi” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi. Bunda ma’ruza uchun tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi o‘z oldiga qanday tarbiya elementlarini joriy qilish lozimligini rejalashtirib qo‘yishi kerak.

Tarix fani o‘qituvchisi tomonidan yuqorida qayd etilgan vazifalar to‘liq bajarilsa, ma’ruza jarayonini tashkil etuvchi bilan talaba o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatiladi, ma’ruzada yangicha nuqtai nazarlar, fikr va g‘oyalar bayon qilinadi, shuningdek, hamkorlik strategiyalarining hamkorlikda o‘qitish metodlariga asoslangan ma’ruza talabaga teran mushohada qilish imkoniyatini yaratadi. Ma’ruzachi o‘quv dasturining butun mazmunini emas, balki muhim, murakkab joylariga aniqlik kiritadi, fandagi farazlarni keltirib, talabani mustaqil fikr yuritishga undaydi, muammolar qo‘yib, uni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ayniqsa, birinchi va ikkinchi kurs talabalari uchun ma’ruzalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ma’ruza talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning manbalari, yo‘llari, vositalarini ko‘rsatadi. Professor-o‘qituvchi ma’ruzada plyural fikrlar, nuqtai nazarlar bildiradi, talaba manbalar ustida mustaqil ishlash orqali o‘z bilimini oshiradi. Natijada hamkorlik strategiyalariga asoslangan tarix darslarini o‘qitishda talabalardagi faollik²², muloqotchanlik²³, axborot almashish va uni tarixiy tadqiq etish²⁴, tezkor aloqa²⁵ ni o‘rnatish kabi kompetensiyalarni integrativ (maxsus, psixologik-metodik, didaktik) ko‘rsatkichlar²⁶ ga erishiladi.

Ma’ruza jarayoniga qo‘yilgan ayrim talablar quyidagilar hisoblanadi:

– mavzuning barcha rejalari orasidagi metodik aloqadorlik, tizimlilikni saqlash orqali vaqt taqsimotiga ham e’tibor berish lozim.

Bunda rejalardan biri (masalan, 3-reja “BXSРning tashkil topishi”) qo‘shimcha materiallarga boy bo‘lsa-da, texnologik xarita asosida loyihalashtirilgan vaqt taqsimotiga rioya etish zarurligi nazarga tutilmoqda.

²² Faollik – ta’lim jarayonida faol ishtirok etish.

²³ Muloqotchanlik – boshqalar bilan erkin va maqsadli aloqa o‘rnatish.

²⁴ Axborot almashish va tadqiq qilish – tarixiy manbalar bilan ishlash, axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish.

²⁵ Tezkor aloqa – jamoada samarali munosabat va javob qaytarish qobiliyati.

²⁶ Integrativ ko‘rsatkichlar (uyg‘unlashgan ko‘rsatkichlar) ta’limning turli jihatlarini birlashtirib, yuqori sifatli natijaga erishishga xizmat qiladi, bular: maxsus ko‘rsatkichlar – tarix faniga oid bilimlar, manbalar bilan ishlash, voqealarni tahlil qilish kabi sohaga xos ko‘nikmalar; psixologik-metodik ko‘rsatkichlar – talabalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda darsni rejalashtirish, ularning ruhiy holatiga mos o‘qitish, jamoadagi psixologik muhitni saqlash; didaktik ko‘rsatkichlar – darsni tuzish, o‘qitish usullari, vizual va axborot vositalaridan foydalanish, maqsadga mos vazifalarni tanlash.

– tarixiy davr va voqealarni o‘zaro taqqoslash orqali ularning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tushuntira olish;

Bunda ma’ruza mavzusining xronologik davri doirasida jahon mamlakatlari – Fransiya, Germaniya, AQSH; O‘rta Osiyo mintaqasida – TASSR, BXSr, XXSR hukumatlari boshqaruvi yillarida ro‘y bergan muhim voqealarni taqqoslash orqali erishiladi.

– mavzuning barcha rejalari orasidagi uzviylik, uzluksizlik, tizimlilikni saqlashga ham e’tibor berish lozim.

Bunda 1920-1924-yillarda faoliyat yuritgan BXSr hukumati a’zolarini o‘qituvchi xatosiz, yoddan bayon eta olishi kerak: “1920-yil 14-sentabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, inqilobiy qo‘mita va BKP MKning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi – Abdulqodir Muhiddinov) va respublika hukumati – 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi – Fayzulla Xo‘jayev) tuzildi va hokazo.

– tarixiy voqea-hodisalar to‘g‘risida mustaqil fikr yuritib, ularning kelib chiqish omillari haqida bilish.

Bunda o‘qituvchi ziddiyatli masalaga ham o‘z qarashlariga ega bo‘lishi talab etiladi. Masalan, “Buxoro hududidagi qizil armiya harbiy qismlari va sovet tartiblariga nisbatan 1920-yil kuzidan boshlab BXSrda qurolli qarshilik ko‘rsatish harakati boshlanib ketdi. Bu harakat hukumat mavjud bo‘lgan 4 yildan ortiq davrda goh kuchayib, goh pasayib davom etib turdi. Sovet rejimiga qarshi qurolli kurashlarda Ibrohimbek Laqay (1889-1932), Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Mulla Abdulqahhor (1884-1924) kabi yirik qo‘rboshilar va turkiyalik harbiy sarkarda Anvar poshsho (1881-1922) muhim rol o‘ynaydilar”.

– o‘rganilayotgan davrning asosiy voqealari bilan bog‘liq atamalarni to‘g‘ri qo‘llay olish;

Bunda 1920-1924-yillarda faoliyat yuritgan BXSr hukumati davri iqtisodiy sohasiga oid (birinchi birja, birinchi bojxona, birinchi qog‘oz pullar), ijtimoiy sohaga oid (birinchi dorixona, birinchi feldsherlik shifoxonasi, birinchi xotin-qizlar tashkiloti, birinchi sud mahkamasi), madaniy sohaga oid (birinchi kutubxona, birinchi muzey, birinchi teatr, birinchi klub) kabi atamalarni darsda aniq dalillar asosida bayon eta olish o‘qituvchidan talab qilinadi.

Xullas, tarix fani o‘qituvchilari har bir ma’ruza mashg‘ulotlarini zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida ta’limiy, tarbiyaviy hamda keng qamrovli tashkil etishga mas’ul hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim beruvchi sifatida faqat o‘quv materiallarini taqdim etish bilangina cheklanmasdan ta’lim oluvchi shaxsini ijtimoiy muhit bilan tez muloqotga kirishib ketishga o‘rgatishi kerak. Natijada talaba tarix fani ma’lumotlari orqali o‘zining ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy muammolarini osongina yechishga qodir bo‘la oladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari tarix yo‘nalishi III bosqich bakalavr talabalariga o‘quv rejasiga ko‘ra “Tarix o‘qitish metodikasi” fani o‘qitiladi. Mazkur fanning bosh maqsadi – istiqbolda tarix fani o‘qituvchisini o‘z ixtisosligi bo‘yicha dars mashg‘ulotlariga tayyorlashdan iborat. Hozircha bo‘lajak tarixchilarga “Tarix o‘qitish metodikasi” fani ilk pedagogik ko‘nikmalar hosil qiladigan fan hisoblanar ekan, mazkur fanning har bir mavzusini mazmunli va samarali qilib tashkil etish o‘qituvchidan yuksak salohiyatni talab etadi. Dars

mashg'ulotlarini umumta'lim maktablari sharoitlariga, dasturlariga, qolaversa, zamonaviy darsliklar mazmuniga moslashtirish muhim.

“Tarix o‘qitish metodikasi” fanining har bir o‘quv mashg‘ulotini uch bosqichga taqsimlash, dasturga ko‘ra berilgan mavzularni qo‘shimcha dalillar asosida bayon qilish nuqtai nazaridan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi tavsiyalar taqdim etilgan. Masalan, “Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni” deb nomlangan birinchi mavzuni loyihalashtirishda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratiladi.

O‘quv mashg‘ulotining dastlabki bosqichida fanning va mavzuning dolzarbligi, ilmiy, nazariy, pedagogik ahamiyati tushuntiriladi. “Metodika”, “ta’lim”, “metodologiya” kabi tayanch atamalarga izoh beriladi.

Mavzuning 1-rejasi “Tarix o‘qitishning mazmuni, maqsad va vazifalari” deb nomlanib, mazkur rejada umumta’lim maktablari va turli ta’lim muassasalarida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos yo‘nalishlari vujudga kelayotganligi, istiqbolda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun o‘qitishning mazmunini oshirish zarurligi hamda bu bilan bog‘liq muammolar qayd etiladi.

“Tarix o‘qitish metodikasi” fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyot va fanga doir ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘liqligi” deb nomlangan reja davomida har bir bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisi o‘z yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning yutuqlaridan xabardor bo‘lishi, qolaversa, har bir mavzu doirasida o‘z o‘quvchilariga hozirgi bosqichdagi taraqqiyot va fanga doir ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘liq yangiliklarni berib borishi lozimligi tahlil qilinadi.

O‘quv dasturiga binoan mavzu va rejalarga oid yuqoridagi fikrlar bayon etilgach, umumta’lim maktab darsligidan bir mavzu bo‘yicha metodik ishlanma taqdim etiladi.

Ma’ruzaning ikkinchi bosqichida “O‘zbekiston tarixi” fanining “Somoniyalar” mavzusi doirasida faoliyat olib boriladi.

Avvalo, darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish zarurligi tavsiya beriladi.

a) ta’limiy: o‘quvchilarga Somoniyalar hukmronligining vujudga kelishi, Ismoil Somoniyning faoliyati, boshqaruv tizimi, mudofaa ishlari haqida tushunchalar berish;

b) tarbiyaviy: zakovatli va zukko bo‘lish (Ismoil Somoniya berilgan ta’rif misolida), qobiliyatlilik (Ismoil Somoniya berilgan ta’rif misolida), g‘ayratlilik (Ismoil Somoniya berilgan ta’rif misolida);

s) rivojlantiruvchi: harbiy, me’mor, to‘quvchi kabi kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha tushunchalar berish.

Darsning borishi (o‘tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuning bayoni, mustahkamlash) bosqichi uchun hamkorlik strategiyalariga asoslangan quyidagi dasturlar tavsiya etiladi.

“Men kimman?” dasturi (darsning o‘tgan mavzuni so‘rash jarayonida tarixiy shaxslar faoliyati yuzasidan takrorlash amalga oshiriladi)²⁷.

Xalifa Ma’mun – ushbu shaxs arab xalifasi (813-833) bo‘lib, somoniylardan bo‘lgan shaxslarga turli viloyatlarni taqdim etgan.

²⁷ Izoh: tarixiy shaxslar faoliyati o‘qituvchi tomonidan I shaxs birlikda aytiladi.

Rofe ibn Lays – ushbu shaxs arab sarkardasi hisoblanib, 806 yilda Samarqand va boshqa viloyatlarda qo‘zg‘olon ko‘targan. Somoniylar vakillari bu qo‘zg‘olonni sulh bilan yakunlab, siyosiy maydonga kirib kelganlar.

Tohir ibn Husayn – bu shaxs Hirot yaqinidagi Bo‘shang shahri hokimi bo‘lib, Tohiriylar sulolasiga asos solgan.

Amr ibn Lays (879-900) – bu shaxs Safforiylar sulolasining so‘nggi vakili hisoblanib, 900-yilda Ismoilidan yengilgandan so‘ng, Xuroson hududlari to‘liq Somoniylar qo‘liga o‘tadi.

Xalifa Mu‘tazid – ushbu shaxs Ismoil Somoniyning Movarounnahr va Xuroson hukmdori ekanligini tan olgan.

Yangi mavzu bayoni va uni mustahkamlash bosqichlari uchun uch ustunli jadvalni ustida ishlash yaxshi natija beradi.

2-jadval

Topshiriqni to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish jadvali

Savollar	Javoblar	Izoh
Qayerning?	Movarounnahrning	Movarounnahrning ravnaqida islom dini bilimdonlarining hissasi katta bo‘ldi
Qayerni?	Somoniylar maqbarasini	Somoniylar maqbarasini ichki tomonlari 7,2x7,2 metr bo‘lib, usti gumbaz tarzida yopilgan
Qayerga?	Buxoroga	Ismoil Somoniy akasi Nasr tomonidan Buxoroga noib qilib tayinlangan
Qayerda?	Dargohda	Somoniylar davrida dargohda amir qarorgohi hamda saroy a‘yonlari, navkar va xizmatkorlarining turar joylari bo‘lgan
Qayerdan?	Movarounnahr va Xorazmdan	Itil, Xazar va Bulg‘orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq mevalar, shirinliklar, tuzlangan baliq, paxta, shoyi matolar, movut, kimxob va gilamlar olib borib sotilgan

Ma‘ruzaning uchinchi bosqichida “Darsni kuzatuvchi uchun yo‘riqnoma” bandlari bo‘yicha bo‘lajak tarixchilar uchun metodik maslahatlar taqdim etiladi:

– darsning ko‘rgazmaliligi;

(xaritalar (O‘zbekiston va jahon siyosiy xaritalari, globus, o‘quvchilarning o‘z qo‘li bilan chizgan mavzu (Somoniylar)ga oid xarita); eksponatlar (plakat, maket (Somoniylar maqbarasi); mavzuga oid kitoblar (Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, Mirkarim Osimning “Ibn Sino qissasi”); tarqatma materiallar, interfaol chizmalar, krossvord loyihasi kabilarni tayyorlab, ulardan darsda unumli foydalanish zarur);

– o‘qituvchining uslubiy mahorati;

(darsda o‘qituvchining ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, interfaol chizmalar, krossvord loyihasidan qanday usullar yordamida foydalanishi,

maslhg'ulotning qaysi bosqichida qo'llasa samarali bo'lishi bo'yicha fikrlar beriladi)²⁸ va hokazo.

Xullas, "Tarix o'qitish metodikasi" fanining har bir o'quv mashg'ulotini uch bosqichga taqsimlash asosida ham hamkorlikda o'qitishning amaliy jihatlari nazarda tutilgan. Chunki keyingi yillarda umumiy o'rta ta'limning mazmun va mohiyati tubdan yangilandi. O'quvchilarning intellektual va individual faoliyat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish uchun barcha pedagoglar jon kuydirmoqdalar. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga va hayotiy vaziyatlarga moslab tayyorlashimiz lozim. Tarix fani o'qituvchisi shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyektga aylanishi, o'quvchilar esa bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga safarbar etilmog'i kerak. To'g'ri, bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning samaradorligi faqat o'quv ta'minotlariga bog'liq emas. O'quv dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar qanchalik takomillashgan bo'lsa-da, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, jozibali ma'ruzasi, hamkorlikda o'qitishga asoslangan metodlari o'rnini egallay olmaydi.

Lekin baribir muammo shundaki, "Tarix o'qitish metodikasi" fani qatorida barcha o'quv dasturlar va darsliklarni bugungi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, zamonaviy universitetlarning²⁹ bosh vazifalaridan biri – modul-kredit tizimiga va masofaviy ta'lim jarayonlariga yaqinlashtirish lozim. Bu esa bugungi kunda fidoiy mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlantiruvchi "Ko'p burchakdan tahlil" ("Think-Pair-Share") usuli³⁰ (madaniy dialogli, adaptiv, reproduktiv bosqichlarini integratsiyalash) tadqiqotda takomillashtirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamkorlik strategiyalarining amaliy asoslari**" deb nomlangan uchinchi bobida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamkorlik strategiyalariga asoslangan amaliy (seminar, mustaqil ta'lim) mashg'ulotlarni tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bu orqali tuzilgan talabalarning guruhiiy va jamoaviy hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg'ulotlarning pedagogik loyihalari dissertatsiyada bayon etilgan.

Tadqiqot matnida hamkorlik strategiyasining "Komandada o'qitish" metodi asosida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari tarix ta'lim yo'nalishi 5-semestrda "O'zbekiston tarixi" fanining 7-mavzusi hisoblangan "O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishining sabablari, maqsadi va mohiyati" o'quv (seminar) mashg'ulotini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

²⁸ "Tarix o'qitish metodikasi" fani bo'yicha to'liq amaliy ishlanmalar dissertatsiya matnida taqdim qilingan.

²⁹ Zamonaviy universitetlar deganda, universitet - 2.0 dasturiga ko'ra ta'lim va tadqiqotni mo'ljal olgan, ta'lim xizmati maqomiga ega universitetlar tushuniladi.

³⁰ Bu usul 3 bosqichli strategiya: think (o'ylash) - talabalar masalani mustaqil tahlil qiladi. Pair (juftlikda muhokama) - hamkasb bilan fikr almashadi. Share (guruh bilan bo'lishish) - guruh oldida xulosalarni muhokama qiladi.

I. Tashkiliy qism.

Mashg'ulotning ta'limiy maqsadi: O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishining sabablari, maqsadi va mohiyati; O'zbekiston SSRning tashkil topishi; O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish hamda uning xalq xo'jaligiga ta'siri masalalarini amaliy jihatdan o'rganish.

Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: O'rta Osiyo respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish masalalarini o'rganish asnosida biror muhim qaror qabul qilishdan oldin qilinajak qarorning oqibatlari haqida chuqur o'ylab ko'rib, ushbu qaror nafaqat kishining o'ziga, balki atrofdagilarga ham ta'sir qilishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozimligini uqtirish³¹.

Mashg'ulotning jihozlari:

– xaritalar (O'zbekiston va jahon siyosiy xaritalari, XX asrning 20-yillari davri mavzulariga oid xaritalar);

– ko'rgazmali qurollar (arxiv hujjatlari, “Ozod Buxoro” (1923-1929-yillarda chop etilgan) va boshqa gazetalarning mavzuga doir maqolalari, tarixiy shaxslarning suratlari);


– tarqatma materiallar (interfaol chizma-grafiklar, jadvallar, rag'bat kartochkalari);

– texnika vositalari (elektron doska, proyektor).

Mashg'ulotda foydalanilgan texnologiya: hamkorlik strategiyasining “Komandada o'qitish” metodi.

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

O'tgan mavzu “Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalaridagi ijtimoiy-xo'jalik hayot” mavzusi bo'yicha “Komandada o'qitish” metodi asosida talabalar bilimini sinab ko'rish uchun quyidagi jarayon amalga oshiriladi. Bunda talabalar teng sonli ikki komandada ajratiladi. Har ikkala komandaga bir xil chizma-grafikli topshiriq beriladi. Guruhlarga a, b, c, d harflari joylashgan kataklarga mos keluvchi ma'lumotlarni tezkor yozish topshiriladi:




1-rasm. Topshiriqqa mos matn yozish birinchi chizmasi

Mazkur chizma-grafik (1-rasm) ajratilgan ikkita komandaga bir vaqtda tarqatiladi. Talabalarga 2 daqiqa vaqt beriladi. Topshiriq bajarilib bo'lingach,


³¹ Raxmonov K. Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –Toshkent, “FAN ZIYOSI”. 2024. – B. 56.

guruhlarning yozgan ishlari muhokama qilinadi (2-rasm yordamida). Tezkor va to‘g‘ri javob bergan guruh rag‘bat kartochkalari orqali baholanadi.



2-rasm. Topshiriqqa mos matn yozilgan ikkinchi chizma

O‘qituvchi talabalarning o‘tgan mavzu bo‘yicha nazariy bilimlarini seminar mashg‘ulotida mustahkamlashlari uchun “Tarix charxpalagi” uslubidan foydalanishi mumkin³². Bunda kompyuter va proyektr yordamida ekranga dastur chizmasi chiqariladi yoki vatman qog‘ozda tayyorlangan chizma doskaga ilib qo‘yiladi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Dastur chizmasi

So‘ngra har bir komandadan bir nafar talaba taklif etiladi. Taklif etilgan talaba chizmada berilgan “Tarix charxpalagi”dagi sirli raqamlardan birortasini tanlashi lozimligi aytiladi. Birdan beshgacha bo‘lgan raqamlar orasidan istalgan raqamni tanlaydi va shu raqam ostida yashirilgan savolni o‘z guruhiga taqdim etadi. Javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Ishtirokchi talaba o‘z javobini aytib

³² Raxmonov K.J. Hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar darslarini loyihalashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar (“1920-1924 yillarda BXSR matbuoti” mavzusi misolida)\\ Pedagogik akmialogiya. – Buxoro, 2024. № 6. – B. 97.

bo'lgach, o'yinni davom ettirish uchun keyingi talaba taklif qilinadi. "Tarix charxpalagi"dan sirli raqamlarni tanlashda, shuningdek, talabalarni ishtirokchi sifatida taklif qilishda bir marotaba aytilgan raqam ikkinchi marotaba takrorlanmasligi lozim. Shu tariqa 5 nafar talaba birin-ketin 5 ta savolga javob beradilar.

"Tarix charxpalagi" uslubini amalga oshirish uchun talabalarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. 1921-yil bahorida qizil armiyaga qarshi ommaviy xalq norozilik harakatlari Buxoroning qaysi qismida ko'tarildi? (Sharqiy Buxoroda).

2. 1924-yilning oxirida qizil armiya askarlariga qarshi bo'lgan janglarning birida halok bo'lgan qo'rboshini bilasizmi? (Mulla Abdulqahhor).

3. 1922-yil avgustda istiqloqlar rahbari Anvar Posho Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofidagi qaysi qishloqda bosqinchi qizil armiyaga qarshi jangda halok bo'ldi? (Obidara).

4. Mulla Abdulqahhor bilan qizil askarlar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tgan G'ishti va Kattag'amxo'r qishloqlari hozirgi qaysi tumanga qarashli? (G'ijduvon).

5. Amir Olimxon qachon Afg'oniston hududiga o'tib ketishga majbur bo'ladi? (1921-yil mart oyida)³³.

III. Yangi mavzuni o'rganish ("O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishining sabablari, maqsadi va mohiyati").

a) komandalar o'rtasida jadvalni to'ldirish topshirig'i o'quv bahsini uyushtirish (yozma ravishda).

Bunda talabalar teng sonli ikki komandada ajratiladi. Har ikkala komandaga bir xil jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi. Guruhlarga a, b, c, d, e harflari joylashgan kataklarga mos keluvchi ma'lumotlarni tezkor yozish topshiriladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Topshiriqni yozish jadvali

O'zbekiston SSR hukumati tarkibi	Lavozimlarning nomi
Fayzulla Xo'jayev	a
b	yer ishlari komissari
Rahmat Rafiqov	c
d	moliya komissari
Asfandiyorov	e

Mazkur jadval ikkita komandaga bo'lingan guruh a'zolariga bir vaqtda tarqatiladi. Talabalarga 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruh a'zolari tomonidan hamkorlik asosida bajarilgan topshiriq javoblari tekshiriladi (4 - jadvalga qarang). Tez va to'g'ri javob bergan guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.

³³ Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. – Бухоро: Бухоро, 2003. – Б. 33.


Topshiriqni tekshirish jadvali

O‘zbekiston SSR hukumati tarkibi	Lavozimlarning nomi
Fayzulla Xo‘jayev	a) O‘zbekiston SSR markaziy revkom raisi
b) Inomjon Xidraliyev	yer ishlari komissari
Rahmat Rafiqov	c) ichki ishlar
d) Qori Yo‘ldosh Po‘latov	moliya komissari
Asfandiyorov	e) sog‘liqni saqlash ³⁴

b) komandalar o‘rtasida o‘quv bahsini uyushtirish.

“Komandada o‘qitish” metodi uchun “Debat” o‘quv bahsi mos keladi.

Debat – bu aniq tuzilgan va maxsus tashkil etilgan dolzarb mavzu bo‘yicha ikki komanda o‘rtasidagi bahs hisoblanadi. “O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishining sabablari, maqsadi va mohiyati” mavzusi bo‘yicha quyidagi bahs-munozara masalalari o‘qituvchi tomonidan muhokamaga qo‘yiladi. Bunda komandalardan biriga “Tarafdorlar” ikkinchisiga “Qarshilar” deb nom qo‘yiladi. Мазкыр mavzu bo‘yicha o‘qituvchi to‘rtta muammoli vaziyatni kompyuter va proyektr yordamida ekranra chiqaradi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Topshiriq chizmasi

“Tarafdorlar” va “Qarshilar” o‘z guruhlarida ushbu munozarali masalalarni o‘rganib, mustaqil fikr yuritishlari uchun besh daqiqa vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi birinchi ma‘lumotni o‘qiydi. Shundan so‘ng “Tarafdorlar” guruhi o‘z fikrlari bilan ushbu muammoli vaziyatni ijobiy tomonlarini dalillar orqali isbotlashga harakat qiladilar. “Qarshilar” guruhi “Tarafdorlar”ning fikrlarini tinglagach, o‘zlarining tanqidiy mulohazalarini, muammoli vaziyatning salbiy tomonlarini bayon etadilar. O‘qituvchi esa ushbu vaziyat bo‘yicha ikkala guruhning fikrlarini tinglagan holda masalaning asosli tomonlariga tayanib, xulosa yasaydi. Shu tariqa to‘rtta muammoli vaziyat ham o‘qituvchining mulohazalari yordamida o‘z xulosaviy yechimini topadi. Yakunda guruhlarining faol talabalari rag‘bat kartochkalari asosida baholanadi.

c) o‘quv materialini mustahkamlashni amalga oshirish.

Mavzu rejalarini mustahkamlash uchun “To‘rt ustun” dasturi bo‘yicha guruhlariga quyidagi jadval ikki guruhga taqdim etiladi (5-jadvalga qarang).

³⁴ Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд. – Тошкент, Фан, 2024. – Б. 15.

Topshiriqni yozish jadvali

atama	shaxs	hudud	yil
a	F. Xo‘jayev	Buxoro	1924-yil 25-fevral
milliy belgi	b	Toshkent	1924-yil 10-mart
mas’ul kotib	Q.Odinayev	c	1924-yil iyul oyi
birinchi qurultoy	Kalinin	Buxoro	d

Qaysi guruh quyidagi javoblarga ko‘ra to‘liq va to‘g‘ri yozib, birinchi bo‘lib topshirsa, rag‘bat qartochkasi beriladi.

1) 1925-yil 24-fevralda Buxoroda kompartiyaning plenum muhokamasiga milliy-hududiy chegaralanish masalasi qo‘yildi. Plenumda Fayzulla Xo‘jayev ma‘ruza qildi.

2) 1924-yil 10-martda Toshkentda Turkiston kommunistik partiyasi xodimlarining kengashida A.Rahimboyev milliy-hududiy chegaralanishni milliy belgi bo‘yicha o‘tkazishni ta’kidladi.

3) 1924-yil iyulida Q.Odinayev Xorazm kompartiyasi mas’ul kotibi lavozimidan olib tashlandi.

4) 1925-yil 13-17-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan “Xalq uyi”da Butuno‘zbek sovetlarining birinchi ta’sis qurultoyi (s‘yezdi) bo‘lib o‘tdi. Qurultoy ishida Moskvadan kelgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi M.Kalinin qatnashdi va nutq so‘zladi.

IV. Talabalar bilimni baholash.

O‘qituvchi tomonidan rag‘bat kartochkalari sanaladi va “Komandada o‘qitish” metodi asosidagi seminar mashg‘ulotining g‘olib guruhi aniqlanadi.

V. Darsni xulosalash va yakunlash.

O‘qituvchi ikki komanda a‘zolari (talabalar)ga faolliklari uchun minnatdorchilik bildiradi. Navbatdagi mavzu va rejalarni e‘lon qiladi (“1920-30-yillarda O‘zbekiston SSRda madaniy hayot”). Keyingi mashg‘ulot hamkorlik strategiyasining “Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish” metodi asosida joriy qilinishi rejalashtiriladi.

Hamkorlik strategiyasining “Komandada o‘qitish” metodi O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari tarix ta’lim yo‘nalishida o‘tiladigan “Jahon tarixi” fanining o‘quv (seminar) mashg‘ulotini tashkil etishda ham amaliy natija beradi. Shuningdek, hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodidan foydalanib, mustaqil ta’lim topshiriqlarini berilishi ham o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Xullas, hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg‘ulotlar tarix ta’limi muhitida o‘zaro qayta aloqaga kirishuvchi sinergetik ta’sirning (ijobiy, konstruktiv, inklyuziv) darajasini baholash mezonlariga ustuvorlik beradi. Natijada guruhdagi ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi, rivojlantiruvchi va boyituvchi munosabatlar yuzaga chiqishiga amaliy asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi hamda tajriba-sinov natijalarining tahlili keltirilgan.

Ilmiy - pedagogik manbalarda ta’kidlanishicha, har qanday tadqiqot ishining natijasi nazariy g‘oyalarning amaliy faoliyatdagi samaradorlik darajasi bilan

belgilanadi. Shunga binoan, tadqiqot jarayonida, uning maqsadi, predmeti, obyekti, vazifalari mazmunidan kelib chiqib, birinchi bobda hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari, ikkinchi bobda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik ta'limini loyihalashtirish orqali ma'lum xulosalarga kelindi. Bunda tarix o'qituvchilarini o'quv mashg'ulotlariga nazariy-uslubiy tayyorgarligi va ularni takomillashtirish metodikasini tahlil qilish, tadqiq qilinayotgan muammoning amaldagi mavjud holatini o'rganish, xulosalarga kelish, "Tarix o'qitish metodikasi" o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish asoslarini yaratish zaruriyatini tug'dirdi. Uchinchi bobda esa bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamkorlik strategiyalarining amaliy asoslari ochib berildi.

Birinchi shakllantiruvchi bosqich. Tajriba maydonlarida tajriba-sinov ishlarida ishtirok etuvchilarning soni belgilandi hamda ularning ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, "Hamkorlik", "Tarix darslarining turlari", "Zamonaviy dars usullari", "Interfaol dasturlar", "Mustaqil ta'lim topshiriqlari", "Tarix darslarida joriy etiladigan keys-stadilar", "Tarix darslarini loyihalashtirish" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash darajalari aniqlandi. Shuningdek, bu bosqichda hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga yordam bera oladigan o'quv-metodik majmualar va ularning ahamiyatlari aniqlandi hamda tajriba-sinov ishlarini muntazam, tizimli, izchil, maqsadga muvofiq olib borish uchun mas'ul mutasaddilar tarkibi belgilandi.

Ikkinchi tasdiqlovchi bosqich. Ushbu bosqichda tadqiqot muammosining holati o'rganilib, tajriba ishlari uchun tajriba va nazorat guruhlari belgilandi. Ushbu guruhlar uchun reja, dastur, tajribaviy ishlanmalar tayyorlandi. Tajriba-sinov xususiyatidan kelib chiqib, nazorat va tajriba guruhlarida kuzatish olib borildi. Ishlab chiqilgan metodik hamda uslubiy tavsiyalar sinovdan o'tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan majburiy va tanlov fanlar mazmunidagi ma'lumotlarning bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi imkoniyatlari o'rganilib, ilmiy-pedagogik metodlar yordamida talabalarda uni yanada rivojlantirish ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va ularni talabalar tomonidan anglanganlik darajalari aniqlandi.

Uchinchi yakuniy bosqich. Bu bosqichda tadqiqot maqsadi, vazifalari va ularni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan talablar asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi. Shuningdek, mazkur bosqichda olingan natijalarning pedagogik samaradorligi aniqlandi, uni takomillashtirish uchun umumiy xulosalarga kelinib, tavsiyalar tayyorlandi. Tajriba guruhlarida kuzatishlar olib borildi. Tayyorlangan metodika hamda metodik tavsiyalar sinovdan o'tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan majburiy va tanlov fanlari auditoriyadan tashqari ma'naviy va ma'rifiy ishlar, milliy mazmundagi ma'lumotlarning tarix o'qituvchilarini istiqbolda kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdagi imkoniyatlari o'rganildi hamda hamkorlikda o'qitish metodlari yordamida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining mazmuni, bilimlarni o'zlashtirish darajalari aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida Navoiy davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universitetida tajriba-sinov jarayoniga jalb qilingan respondentlarning kasbiy faoliyat metodikasini tarkibiy qismlarini bilish darajalari yuqorida qayd etib o'tilgan mezonlar asosida ishlab chiqildi. Barcha respondent talabalar tajriba guruhi – 234 nafar, nazorat guruhi – 275 nafar tajriba-sinov ishlariga jalb qilinib, matematik-statistik, so'rovnoma, anketa savollariga javoblar, suhbat, test olish, tahlil va kuzatish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanib, tajribada sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2024-yillar davomida olib borildi.

6-jadval.

Hamkorlik strategiyalari asosida tarix ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dinamikasi

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining rivojlanganlik mezonlari	Tajriba guruhi (234 nafar respondent)					
	yuqori		o'rtacha		quyi	
	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
1. Hamkorlik deganda nimani tushunasiz?	22	115	90	78	122	41
2. Tarix darslarining qaysi turlarini bilasiz?	26	117	88	80	120	37
3. Tarix fanlaridan ma'ruza o'quv mashg'ulotlarining qanday turlarini bilasiz?	27	118	87	76	120	40
4. Tarix darslaridan seminar o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy dars usullaridan foydalanishning ahamiyati nimada?	25	115	91	81	118	38
5. Tarix darslarida samarali qo'llanilganda, metodik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi interfaol dasturlarga oid misollar keltiring?	24	116	91	82	119	36
6. Mustaqil ta'lim topshiriqlariga nimalarni kiritish mumkin?	26	117	90	78	118	39
7. Tarix darslarida joriy etiladigan keys-stadilar haqida ma'lumot bering?	21	114	89	79	124	41
8. Tarix darslarini loyihalashtirish haqida nimalar bilasiz?	22	113	88	80	124	41
9. Qaysi metodlardan mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalanish mumkin?	23	117	86	78	125	39
10. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix o'quv mashg'ulotlaridagi qaysi mavzularni muhim deb o'ylaysiz?	27	120	85	74	120	42
11. Tarix o'qitish metodikasini o'rgangan tadqiqotchilardan kimlarni bilasiz?	20	113	90	80	124	41
12. Tarix o'qitish metodikasi fanidan yozilgan darsliklar ta'minoti va ularning mazmuni qoniqarlirmi?	26	118	90	77	118	39
13. Tarix fanlarini o'qitish jarayonida darslikdan tashqari qanday manbalardan foydalanish ahamiyatli hisoblanadi?	25	113	90	83	119	38
14. Tarix o'qitish metodikasi fani bo'yicha qanday o'quv qo'llanmalari chop etilishini istaysiz?	27	120	85	74	122	40
15. Tarix o'qituvchisining sinfdan tashqari ma'naviy-marifiy faoliyati jarayonida qanday tadbirlarni tashkil etishi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantiradi deb hisoblaysiz?	27	123	88	71	117	42
Umumiy o'rtacha	24	116	89	79	123	39

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'ngida.


Hamkorlik strategiyalari asosida tarix ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dinamikasi

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlanganlik mezonlari	Nazorat guruhi (275 nafar respondent)					
	yuqori		o'rtacha		quyi	
	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
1. Hamkorlik deganda nimani tushunasiz?	39	36	92	99	144	140
2. Tarix darslarining qaysi turlarini bilasiz?	38	44	94	97	143	134
3. Tarix fanlaridan ma'ruza o'quv mashg'ulotlarining qanday turlarini bilasiz?	41	42	91	92	143	141
4. Tarix darslaridan seminar o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy dars usullaridan foydalanishning ahamiyati nimada?	37	23	95	98	143	137
5. Tarix darslarida samarali qo'llanilganda, metodik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi interfaol dasturlarga oid misollar keltiring?	40	39	95	95	140	141
6. Mustaqil ta'lim topshiriqlariga nimalarni kiritish mumkin?	35	38	90	93	150	144
7. Tarix darslarida joriy etiladigan keys-stadilar haqida ma'lumot bering?	36	37	96	97	143	141
8. Tarix darslarini loyihalashtirish haqida nimalar bilasiz?	39	41	93	94	143	140
9. Qaysi metodlardan mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalanish mumkin?	37	41	91	94	144	140
10. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix o'quv mashg'ulotlaridagi qaysi mavzularni muhim deb o'ylaysiz?	38	40	93	95	144	140
11. Tarix o'qitish metodikasini o'rgangan tadqiqotchilardan kimlarni bilasiz?	35	36	92	95	148	144
12. Tarix o'qitish metodikasi fanidan yozilgan darsliklar ta'minoti va ularning mazmuni qoniqarlimi?	40	40	93	94	143	141
13. Tarix fanlarini o'qitish jarayonida darslikdan tashqari qanday manbalardan foydalanish ahamiyatli hisoblanadi?	37	42	91	94	144	139
14. Tarix o'qitish metodikasi fani bo'yicha qanday o'quv qo'llanmalari chop etilishini istaysiz?	36	38	94	96	145	141
15. Tarix o'qituvchisining sinfdan tashqari ma'naviy-marifiy faoliyati jarayonida qanday tadbirlarni tashkil etishi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantiradi deb hisoblaysiz?	38	42	95	95	142	138
Umumiy o'rtacha	38	40	93	95	144	140

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'ngida.

Keltirilgan jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Ta'kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi.



5-rasm. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, tajriba guruhi respondentlarining bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatleri nazorat guruhi respondentlariga nisbatan yaxshi natijaga ega bo'lib, tajriba guruhining samaradorlik ko'rsatkichi 11,5 foiz yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu tadqiqot ishimizning maqsadi, vazifalari to'g'ri ishlab chiqilgan va qo'llanilgan metodikaning asoslanganligini ko'rsatadi. Natija nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi samaradorligi oshganligidan dalolat beradi. Ilmiy-tadqiqot natijasida rejalashtirilgan barcha vazifalar hal etilib, quyidagi xulosalarga kelindi.

XULOSA

“Hamkorlik strategiyalari asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari kasbiy-metodik tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, tarix o'qituvchilarini kelajakda kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamkorlik strategiyalaridan foydalanish hamda tarix fani o'qituvchisini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

2. Tarix o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashning zamonaviy holatini o'rganish pedagogika oliy ta'lim muassasasi tarix ta'limi yo'nalishi bo'lajak tarix o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetentliklarini shakllantirish muammosini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatdi.

3. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish talab etiladi. Tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi uning

tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish yo'li orqali har bir tarix o'qituvchisini istiqbolda raqobatbardosh mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etadi.

4. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy ta'minot zahiralari yaratishga va takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar o'qitishning yangicha modelini ishlab chiqishga imkon beradi.

5. Metapredmetli komponentlar tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni nafaqat tarix fanidan bilimli, balki umumiy va kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan ko'plab ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Buning uchun esa ta'lim jarayoni kognitiv (aqliy) asoslarga suyangan holda metapredmetli (umumiy fanlararo) komponentlar asosida tashkil etilishi lozim. Buning ahamiyati va amaliy qiymati esa: ta'limda integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlaydi, kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi, kelajak o'qituvchisini faqat fan doirasida emas, balki ijtimoiy, axloqiy va interaktiv sohalarda ham yetuk mutaxassis sifatida shakllantiradi, XXI asr ko'nikmalariga moslashtiradi.

6. Tarix ta'limi yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash fani hisoblangan "Tarix o'qitish metodikasi" fanining metodik ta'minotini hamkorlik strategiyalari asosida ishlab chiqishni taqozo etadi.

7. "Ko'p burchakdan tahlil" metodi o'quv jarayoni uchun qiziqarli va samarali ekanligi xulosa qilindi. Chunki o'qituvchi loyiha jarayonini boshqarib boradi va talabalarga zarur yordam ko'rsatadi. Talabalar faol sub'ektlarga aylanadi – ular nafaqat bilim oluvchi, balki muhokama qiluvchi, tanqid qiluvchi va taklif etuvchi bo'ladi. Bu jarayonda inson kapitali, ya'ni intellektual va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi – bu esa zamonaviy tarix o'qituvchisi uchun juda muhim.

8. Tarix ta'limida sinergetik ta'sirning ilmiy-nazariy ahamiyati shundaki, bu fikr sinergetika nazariyasiga tayanadi. Ya'ni, umumiy ta'sir shaxsiy ta'sirlar yig'indisidan kattaroq natija beradi. Tarix ta'limida bu - empatiya, o'zaro tushunish, fanlararo o'zaro boyish, kommunikativ kompetensiyalar rivoji, inklyuziv yondashuv orqali teng imkoniyatlardek qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

9. Hamkorlikda o'qitishning "Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish", "Hamkorlikda o'qitishning "arra" usuli", "Birgalikda o'qiyamiz", "Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi" kabilardan foydalanib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini berilishi ham o'z samarasini ko'rsatadi.

10. Pedagogik tajriba-sinov natijalari bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish vositasi sifatida loyihalangan hamkorlik strategiyalari asosidagi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini tasdiqladi.

Mazkur xulosalarga tayangan holda, bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish samaradorligi yuzasidan quyidagi **tavsiyalarni** berish mumkin:

1. Tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha masofadan hamkorlikda o'qitish dasturlarini ishlab chiqish.

2. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim yondashuv – tegishli o'quv rejasini va dasturini

tuzishda fanlararo integratsiyani hamda o‘zaro uzviylik hamda uzluksizlikni amalga oshirish.

3. Istiqbolda oliy ta’lim tizimida yaratilayotgan yangi avlod darslik, o‘quv qo‘llanmalar va dars ishlanmalarini tayyorlash jarayonida hamkorlik strategiyalariga oid texnologiyalardan foydalanish.

4. 70220301 – Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi uchun “Tarix fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” tanlov fanini elektron ta’minotini yaratish va oliy ta’lim muassasalarida ommalashtirish.

5. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini yanada takomillashtirishda “Ko‘p burchakdan tahlil” usulidan foydalanib tarix fanining har bir mavzusiga oid dars ishlanmalarini tuzish.

6. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish maqsadida istiqbolda tarix ta’limi fanlarining o‘zaro integratsiyasi bo‘yicha tadqiqot ishini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

7. Tarix ta’limi o‘quv mashg‘ulotlari (seminar, amaliy, mustaqil ta’lim, masofaviy ta’lim)ga o‘qituvchining tayyorgarligi va uni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy ishlar tayyorlash.

8. O‘zbekiston va jahon tarixi fanlarining alohida ajratilgan xronologik davri (masalan, XIX asr oxiri-XX asr boshlari) bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiya ishini yaratish.

9. Mahalliy, rasmiy, jadid matbuoti materiallaridan qo‘shimcha manba sifatida o‘quv mashg‘ulotlari uchun foydalanish metodikasini yaratish, bu orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashni yanada takomillashtirishga erishish.

**РАЗОВЫЙ УЧЕНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ УЧЕНОГО СОВЕТА
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХМОНОВ КАМОЛ ДЖАМОЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА**

13.00.02. – Теория и методика обучения и воспитания (история)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора наук по педагогическим наукам (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.DSc/Ped1009.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и по адресу (www.ziyounet.uz) информационно-образовательного портала «ZiyoNet»

Научный консультант: Олимов Ширинбой Шарофович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Ярмагов Рахимбой Бахрамович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Турсунов Равшан Нормуродович
доктор исторических наук (DSc), доцент

Избуллаева Гулчехра Валериевна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится “31” май 2025 г. в “10⁰⁰” часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07 e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под №___). (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14).

Автореферат разослан “19” май 2025 года.
(Протокол реестра № 17/01 от 19.05 2025 года)



Ф.Б. Очилдиев
Председатель Научного Совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор

А.Т.Очилов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук (DSc), доцент

А.Р. Хамроев
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в подготовке будущих учителей как специалистов с интеллектуальным потенциалом и высоким уровнем педагогического мастерства особое внимание уделяется использованию современных подходов к обучению, особенно применению стратегий сотрудничества в процессе обучения, с целью непрерывного развития их профессиональных компетенций. В международной концепции образования до 2030 года, принятой ЮНЕСКО, в качестве актуальной задачи указано “создание прочной основы знаний, развитие свободного и независимого мышления, усиление способностей и интересов к сотрудничеству”¹, при этом особое внимание уделяется совершенствованию методики подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе стратегий сотрудничества в процессе высшего образования.

В развитых странах мира профессиональные и личностные качества будущих учителей, а также их педагогическое мастерство развиваются на основе инновационных методов обучения через сотрудничество в образовательном процессе. Хотя этапы развития гуманитарных наук прошли через долгие исторические процессы, с наступлением эпохи глобализации необходимость создания учебников для нового поколения остаётся одной из основных задач повестки дня. Именно в непрерывном развитии и совершенствовании профессиональной деятельности будущих учителей, важную роль играет обогащение содержания учебных занятий технологиями обучения, основанными на сотрудничестве, а также целенаправленное использование этих технологий, что приобретает особое актуальное значение.

В Республике Узбекистан реформирование образования и воспитания, создание основ современного развития в гармонии с национальными и универсальными ценностями, определено как приоритетная задача. «Самое большое богатство – это интеллект и знания. Самое большое наследство – хорошее образование. Величайшая бедность – это невежество. Мы начали реформировать все аспекты образования, где нет знаний, там будет нищета, невежество и неправильное направление. Необходимы знания и высокая духовность»². Это, в свою очередь, требует совершенствования методики подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности через использование стратегий сотрудничества, направленных на «Непрерывное повышение качества и уровня профессионального мастерства педагогических кадров», «Подготовку высококвалифицированных, креативных и системно мыслящих специалистов, способных принимать независимые решения на основе международных стандартов, а также

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). – P.6.

² Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана// Народное слово, 30 декабря 2020 года.

создание условий для проявления их интеллектуальных способностей и формирования их как духовно развитых личностей»³.

Данная диссертация служит в определенной степени выполнению задач в соответствии с Указами Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11 сентября 2023 года, Постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года и других нормативно-правовых документов, связанных с данной областью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий в республике I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Исследования по организации обучения студентов на основе стратегий сотрудничества, а также усовершенствования педагогических условий подготовки к профессиональной деятельности, осуществляются в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях, в частности, в Association for Educational Communications and Technology (США), University of Columbia (США), University of Sorbonne (Франция), University of Freiburg, Bielefeld pedagogical university (Германия), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Великобритания), Japan Institute of International Affairs, Miyagi pedagogical university (Япония), Seoul of National University, University of Chunang (Южная Корея), Московский государственный педагогический университет (Россия).

Исследования в этом направлении привели к ряду научных достижений. В частности, усовершенствованы организационные и стратегические механизмы осуществления международного сотрудничества на основе разработки технологий повышения квалификации и профессионально-методической подготовки (Association for Educational Communications and Technology); усовершенствованы механизмы осуществления эффективной деятельности системы подготовки к тьюторской деятельности в педагогическом высшем образовательном учреждении (Bielefeld pedagogical university); создана организационно-структурная модель развития

³ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

профессионального мастерства преподавателя⁴ (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchester university); разработаны технологии развития исследовательских навыков и квалификаций будущих учителей (University of Columbia, University of Sorbonne, University of Freiburg); созданы проектно-конструктивные технологии развития научно-исследовательских работ у студентов (University of Chunang); усовершенствована технология нейролингвистического программирования формирования духовности учителей (Miyagi pedagogical university); разработаны коллаборативные технологии развития позиции преданности к своей профессии у учителей (Московский государственный педагогический университет).

В развитых странах научные исследования проводятся по следующим приоритетным направлениям: развитие профессионально-методической подготовки будущих педагогов, обеспечение управления профессиональной деятельностью педагогов социально-гуманитарной сферы на уровне современных требований, инновационный подход к организации их профессионально-методической подготовки и другие.

Степень изученности проблемы. По направлению методики обучения уроков истории в высших учебных заведениях опубликованы первые учебники и пособия А.Сагдиевым⁵, М.Гаффоровой⁶, Т.Тошпулатовым и Я.Гаффоровой⁷. В последние годы также публикуются ряд книг, служащих методике подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности⁸.

Один из ученых историков-методистов республики Р.Ярматов защитил докторскую диссертацию по совершенствованию профессионально-методической подготовки будущих учителей истории и опубликовал несколько книг⁹. В ходе исследования, в качестве основных задач, выбраны отбор талантливых студентов, обучение, развитие их научно-исследовательской деятельности.

⁴ Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Vol. 30. №2. –P. 176-188; Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. –Москва, Академия, 2012. –256 с.; Никитина Н.Н. Введение в педагогическую деятельность: теория и практика. Учебное пособие. –М.: Издательский центр Академия, 2008. –224 с.; Современные образовательные технологии. Учебное пособие / Под ред. Н.В.Бордонской. –М.: КНОРУС, 2013. – 432 с.

⁵ Сагдиев А. Ўзбекистон халқлар тарихини ўқитиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1993. –123 б.; шу муаллиф. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 1998. – 98 б.

⁶ Гаффоров Я, Гаффорова М. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш усуллари. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 1996. –120 б.

⁷ Тошпулатов Т., Гаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент, “Университет”, 1999. – 213 б.; шу муаллифлар. Тарих ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, “Университет”, 2002. –196 б.; шу муаллифлар. Тарих ўқитиш методикаси. Дарслик. –Тошкент, “Турон-икбол” нашриёти, 2010. –331 б.

⁸ Sagdiyev A. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2021. –53 b.; Mansurov U. va b. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2022. –134 b.; Toshtemirov S. va b. Tarix o'qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent, “Yangi Chirchiq prints”, 2023. –494 b.; G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, “Olmaliq kitob buziness”, 2023. –392 b.; Yuldashev T. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023. –94 b.; Teshayev A. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Buxoro, 2024. –128 b.

⁹ Ярматов Р.Б. Бўлажак тарих ўқитувчиларининг касбий методик тайёрлаганини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Тошкент. 2021. –279 б.; shu muallif. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. –Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. –136 б.; shu muallif. Pedagogika tarixining nazariy va amaliy asoslari / O'quv qo'llanma. –Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 200 б.

Исследовательница Р.Замилова в своей диссертации о формировании исторического мышления будущих учителей истории предоставила усовершенствованные рекомендации путем достоверности и объективности выбора художественно-исторических текстов, сведений педагогического механизма структуризации, объема и полноты исторического документа, путем непосредственного учета интегративности критериев видов и проявлений художественных текстов с рефлексивным и критическим мышлением¹⁰.

